

Bundan buyon Buyurtmachi deb ataluvchi "Yagona Buyurtmachi xizmati" IK nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor B.Abduraximov va bundan buyon Bajaruvchi deb ataluvchi "Mimax – Road" m'sulyati cheklangan jamiyat Nizomi asosida ish ko'ruvchi korxona boshlig'i S.Zakirova buyurtmachining tanlov xujjatlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirishga doir tashkiliy chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4864 sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabr kungi "2021 - 2023 yillar ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi orqali Andijon viloyatining tuman markazlari va shaxarlarini rivojlantirish ("Salomatlik yo'llari"ni barpo etish) uchun ajratilgan mablag'lar xisobidan loyixa ishlarini bajarish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Andijon viloyati Andijon tuman Sanoat MFY Bunyodkor ko'chasining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ishlarini bajarish uchun loyixa smeta xujjatlari ishlab chiqishni topshiradi. Bajaruvchi esa o'z zimmasiga oladi.

1.2. Tanlov komissiyasining 2022-yil 4-aprel kungi №59604 sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan loyixa-smeta ishlarini bajarish bilan bog'liq ishlarga shartnoma tuzilgan.

1.3. Loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqarish shartnoma g'aznachilikdan ro'yxatdan o'tib va buyurtmachi tomonidan birlamchi xujjatlar taqdim etilgan kundan boshlanadi.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Shartnomaning umumiy qiymati QQS bilan 52 751 000 (Ellik ikki million yetti yuz ellik bir ming) so'mni tashkil qiladi. Shundan LSX xarajatlari qiymatining 30% miqdorida (avans) bo'nak to'lovi bu QQS bilan 15 825 300 (O'n besh million sakkiz yuz yigirma besh ming uch yuz) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Qolgan 36 925 700 (O'ttiz olti million to'qqiz yuz yigirma besh ming yetti yuz) so'm to'lov 2022-yilda ushbu ob'ekt uchun budjetdan yoki boshqa moliyalashtirish manbaidan mablag' ajratilgandan so'm amalga oshiriladi.

2.3. Har bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so'ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda; ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtda bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining so'rovi asosida taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan xajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining rozilgisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov haqi o'z vaqtida o'tkazilmagan holda ishlarni tugallash muddati ham to'lov haqi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

3.6. Mazkur shartnomaning 2.4-bandi bajarilmagan holda Bajaruvchi buxgalteriya hisob-kitoblarini o'zaro solishtirish dalolatnomasi yoki bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida Buyurtmachining bankdagi barcha turdagi hisob-raqamlaridan inkasso talabnomasi qo'yish orqali pulni undirishga to'liq haqli.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar bajarilishining alohida bosqichlarida va shartnomada ko'rsatilgan ishlar to'liq bajarilgandan so'ng Bajaruvchi tomonidan rasmiylashtirib Buyurtmachiga topshirilishi kerak bo'lgan hisobot hujjatlari topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida Buyurtmachiga topshiriladi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1 bandida ko'rsatilgan hisobot xujjatlarini olgan kundan boshlab 5 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va

Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan xolda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

4.6. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

6.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

7.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda hal qilinadi.

7.3. Loyiha-smeta hujjatlariga davlat ekspertiza xulosasi olinib, ushbu davlat ekspertiza xulosasiga asosan shartnoma baxosi qo'shimcha kelishuv asosida o'zgartirilgandan so'ng Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlarini ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi orqali Buyurtmachiga topshiradi.

7.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

7.5. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan xollarda, tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va Andijon viloyati iqtisodiy sudida xal qilinadi.

7.6. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.7. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.8. Agar Buyurtmachining mazkur shartnoma tuzilgan kun holatiga avvalgi shartnomalar bo'yicha Bajaruvchi oldida qarzdorligi bo'lsa, Bajaruvchi ushbu shartnomaga asosan to'langan pul mablag'laridan eng avvalo qarzdorlikni ushlab qolishga va qarzdorlik yopilgandan keyin qolgan mablag'larni ushbu shartnoma bo'yicha hisobga olishga haqli.

7.9. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Shartnoma baxosini kelishuv bayonnomasi (1- ilova)
- Bajarish va moliyalashtirish jadvali (2- ilova)

7.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.11. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha

7.12. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

8. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

Buyurtmachi

"YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI" IK

Manzil: Andijon shaxar,

A.Navoiy ko'chasi №45-uy.

tel/faks:(0-374) 223-08-38

INN: 200238014 OKONX : 69000

ShXR: 100021860034017016801018108

Markaziy Bank Toshkent shaxar bosh
boshqarmasi Uz.Res.Moliya Vazirligi

X/r: 23402000300100001010

MFO: 00014



B.Abdurashidov

Bajaruvchi

"MIMAX – ROAD " MChJ

Andijon shaxri Maxjuriy ko'chasi 27-uy

Telefon: (+99890) 526 1980

X/r: 2020 8000 8009 9958 2001

Asaka Bank Andijon viloyat bo'limi

MFO: 00069 INN: 306 098 110

OKONX: 66000 OKED: 71 110



S.Zakirova

Xuquqshunos: